
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA "ONA" KONSEPTI MISOLIDA "OILAPARVARLIK" XARAKTERINING IFODALANISHI

Xodjiyev Yusuf Norqulovich
GulDU doktoranti

O'zbek xalqining oilaparvarligi uning ota-onasi, bobo-buvilari, aka-singillari, turmush o'rtog'i, farzandlari, qarindoshlari, avlodi, nasliga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Har bir millatda oilaparvarlik hissi, tuyg'usi mavjud va u tilda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Biz ushbu tadqiqotimizda o'zbek xalqida mavjud muayyan milliy xarakter boshqa millatda mavjud emas degan fikrdan tamoman uzoqmiz. Milliy xarakter mana shu tuyg'uning muayyan millat egalari tabiatidagi takrorlanuvchi o'ziga xosliklari bilan belgilanadi. Til esa mana shunday farqli o'ziga xosliklarni nomlash, ifodalash vazifasini bajaradi. Har bir millat farzandini suygandek, ota-onasini ulug'lagandek, qarindoshlarni e'zozlagandek o'zbek millatida ham ayrim farqli milliy komponentlar bilan "oilaparvarlik" milliy xarakteri uzoq tarixiy jarayonlarda shakllangan.

Har bir milliy xarakterda millatning ijtimoiy-madaniy me'yorlari jamlangan bo'ladi. Masalan, o'zbeklardagi oilaparvarlik xarakteri oilaviy munosabatlarni tartibga solib turuvchi uzoq tarixiy shakllanish taraqqiyotini bosib o'tgan ijtimoiy-madaniy me'yorlardan tashkil topgan. Bu me'yorlarga farzandlar ota-ona qariganida tirgak bo'lishi, farzand har qancha haq bo'lsa ham ota-onaga qarshi bormaslik, opa-singillardan xabar olishning qat'iyligi, ota o'tirgan uyning hatto tomiga ham chiqish mumkin emasligi, ota-onaning duosini olish farzligi, farzand oilaviy munasabatlarning maqsadi ekanligi, yoshi katta farzandlarning kichiklarga mas'ulligi, kichiklarning kattalarni hurmat qilishi shartligi, qarindoshlar o'rtasidagi ahillikning saqlab qolinishi, oilaviy an'analarga sodiqlik kabilarni kiritish mumkin.

Har bir millatda bo'lgani kabi ota-onaga bo'lgan munosabat "ota" va "ona" konseptlarida yaqqol ko'rinadi. Quyida o'zbek milliy xarakterining eng asosiy jihati onaga bo'lgan munosabatlar yorqin aks etuvchi "ona" konseptini tadqiq qilamiz.

O'zbek tilida "ona" konseptining markazini *ona* leksemasi tashkil etadi. Biz dastlab kognitiv maydonning markazidan o'rin olgan "ona" leksemasining leksik-semantik xususiyatlarini tahlilga tortamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur leksemaga quyidagicha izoh berilgan:

"ONA 1 Farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin. *Ko'p bolali ona. Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi.* Maqol.

2. Oila boshlig'i, tarbiyachisi. *Bular uchun alohida qozon osilarmidi. Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar (*A.Qahhor, Tomoshabog').

3. Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo'shilib ishlatiladi, mas. *Tojixon ona, Norjon ona.*

4. Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish formasi.

5. Bola tuqqan jonivor. *Toychoqning onasi. Ona qo'y. Yaxshi buzoq ikki onani emar.* Maqol. *Ona ari urug'lagandan keyin bir sutkada 1500–2000 tagacha tuxum qo'yadi.* "Fan va turmush".

6. *Ko'chma* Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. *Yer – hayotning onasi"*[1].

Ona leksemasining birdan ortiq ma'no anglatishi, hurmat va murojaat shakllariga aylanganiligi, leksik ma'nosining taraqqiy etish imkoniyatining katta ekanligi u nomlayotgan tushuncha millatning hayot tarziga yaqinligi, qadrli insonni nomlayotgani va shu sabab turlicha assotsiyatsiyalar hosil qila olishi bilan bog'liq.

Ona leksemasining lug'atda berilgan ma'nolari taraqqiyotida "farzandli", "yaratuvchan", "tarbiyachi", "hurmatli" kabi semalar ustuvorlik kasb etgan. *Ona* leksemasining sememasini "farzandni dunyoga keltirgan ayol" deb belgilash mumkin. Ma'nosini quyidagi semalar tashkil etadi: ayol, farzandli, dunyoga keltirgan. Bu semalar semantik strukturadagi asosiy tayanch semalar sanaladi[2]. Lekin semantik strukturadagi asosiy bo'lmagan chet semalar hisobiga ham ma'no taraqqiy etishi mumkin. Masalan, "tarbiyachi" sememaning chet semasi bo'lsa-da, u orqali lug'atda qayd etilgan ikkinchi ma'no shakllangan.:

[1] O'TIL, 5 jildli, 3-jild, 133-bet.
[2] Хакимова М. Семасиология. -Тошкент, 2008. 38-бет

1-jadval. Ona leksemasining semantik strukturasi

Semema	Sema	Sema	sema	Sema	Sema	Sema	Kontekst
Ona 1	Ayol	farzandli	yaratuvchi	tarbiyachi (potensial sema)	ardoqli (potensial sema)		Onam jannati inson
Ona 2	Ayol	-		tarbiyachi	mehribon		Odina opa onamizga aylanib qolgandi.
Ona 3	Ayol	-	-	-	ardoqli	Keksa	Salima ona juda mehribon inson.
Ona 4	Jonzot	farzandli	yaratuvchi				Ona tovuq juda bezovta edi.
Ona 5	narsa, mohiyat		yaratuvchi				Ona yer zamin bag‘rida erkin yashaylik.

O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida *ona* leksemasi berilmagan. Vaholanki, o‘zbek tilida *ona* va *volida* leksemalari bir-biri bilan sinonimdir:

*Tirik yursa **volidang***
Toqqa kuching yetarkan,
***Onang** o‘lsa, boshingdan*
Oftob o‘tib ketarkan (Muhhamad Yusuf).

Sinonimiyani belgilovchi mezon sifatida denotativ ma’noning aynanligi nazarda tutilar ekan[1], *ona* va *volida* leksemalarining denotati aynandir: har ikki leksik birlik bitta voqelikni nomlamoqda (*onam juda go‘zal ayol, volidam juda go‘zal ayol*). Har ikki leksema uslubiy jihatdan farqlanishga ega. Biri uslubiy xoslanmagan, biri uslubiy xoslangan. *Volida* leksemasi badiiy uslubga xos bo‘lib, arxaiklashib borayotgan leksemalardandir. So‘z arxaiklashib, ya’ni eskirib borishi tez orada sinonimik munosabatlarni bartaraf etmaydi. So‘z leksik sistemada yashasa, til egalari uning shakliy va ma’noviy tomonlarini tanisa, undan muayyan uslublarda foydalansa, demak, so‘z tizimda mavjud, u yashayapti. Mazkur so‘zning sinonimik, antonimik, darajali munosabatlarini lug‘atlarda qayd etish lozim. Lug‘aviy tizimdan chiqib ketgan so‘zlarning ma’nolari umumiy saviyadagi til egalariga tanish bo‘lmaydi, ushbu so‘zdan foydalanishga xalq ehtiyoj sezmaydi.

Shevaga oid so‘zlarga e’tibor qaratar ekanmiz, juda ham boy dialektal variantlarga ega so‘zlardan biri bu *ona* leksemasi. Darhaqiqat, yonma-yon sheva vakillar tilida ham *ona* leksemasi turlicha talaffuz qilinadi: *ona, oyi, opa, aya, ana, ena, acha* kabi. Bu kabi turli dialektal variantga sabab, *ona* so‘zi bolaning ilk gapirgan so‘zlaridan biri bo‘lib, bola hali to‘liq shakllanmagan fonetik strukturasi bilan o‘ziga xos (chala yoki noto‘g‘ri) talaffuz qiladi. Boshqa so‘zlar bolaning lug‘atida *ona* so‘zidek ko‘p qo‘llanmasiligi aniq. Shu tariqa noto‘g‘ri talaffuz orqali ham *ona* leksemasining turli shevalarda farqli nomlanishlari vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

“Konsept – bu ongimizdagi bilimlar majmuyi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlar”[2]. Yani, har qanday tushuncha ham konsept bo‘la olmaydi. Konsept darajasidagi tuhsuncha uch qatlamdan iborat bo‘lishi lozim:

1. Tushunchaviy qatlam. Mazkur qatlam mohiyat haqidagi konseptual bilimlarimizdan iborat bo‘ladi

2. Baholovchi qatlam. Xalqning qadriyatli va baho munosabatidan iborat bo‘ladi.

3. Obrazli qatlam. Til egalarining obrazli va assotsiativ tasavvurlaridan iborat.

Ona konseptining mana shu uch qatlami asosida tahlil qilamiz. Ushbu konseptning tushunchaviy belgilarini aniqlash uchun mazkur leksema qatnashgan matnlar tahlilga tortildi va muayyan matnda konseptning qanday belgilari reallashuvi aniqlandi.

1. “Farzandni dunyoga keltirishi”. Ona, meni o‘gil qilib tug‘sang bo‘larkan, Uy tomin boshqatdan yopib berardim. Ishlab, davlat topib hechkim kiymagan, Asl matolardan topib berardim. (Malika Salimova)

2. Yaratuvchanligi. Sen meni yaratding, Seni tugatdim. Uyalmay ONA deb, Kelishimga boq!.. (Muhammad Yusuf). Yuqoridagi matnda *ona* leksemasi bosh harflarda yozilgan bo‘lib, bu holatda so‘z uslubiy tamoyilga asoslanib yozilgan. H.Jamolxonov mazkur tamoyilni semantik-uslubiy tamoyilning uslubiy turi deb ta’kidlaydi: “Uslubiy prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so‘z yoki grammatik shakllarning semantik tarkibidagi uslubiy semalarning nutqdagi faollashuvini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *ota, ona, vatan, siz, o‘zingiz* kabi so‘zlar yoki grammatik shakllar shu so‘zlar (shakllar) orqali ifodalangan shaxslarga yoki tug‘ilib-o‘sgan yurtga,

[1] Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 73., Sayfullayeva R., Mengliyev M., Boqiyeva B., Qurbonova R., Z.Yunusova, Abuzalova R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va taxnologiyalar, 2010. – Б. 112 .

[2] Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.49.

diyorga alohida hurmat-e'tibor bildirilganda bosh harf bilan yoziladi: *Ota, Vatan, Ona, Siz, O'zingiz* kabi. Shuningdek, gap ichida *Tinchlik, Ozodlik, Mehnat, Baxt* kabi so'zlarning ba'zan bosh harf bilan boshlanishi ham uslubiy prinsip talablaridan kelib chiqadi. Masalan, Yashasin Ozodlik, Tinchlik kabi"[1].

3. Fidoyi ekanligi: O'zing o'ylab bog'lar kezmading, Boshqalardek tog'lar kezmading, Davralarda kulib yurmading, Bugun xasta bo'ldingmi ona? (Shahnoza)

4. Mehribon ekanligi: Bilasizmi, Jazirama oftob tobiga Yelka tutib paykal aro bahordan to kuz, Bolasidek suyanishib ketmon sopiga, Kunda sizni o'ylashini Onalaringiz?(Muhammad Yusuf).

Ona konseptining qadriyatli, baholovchi va obrazli konseptual qatlamlarini quyidagi birikma va matnlar orqali aniqlaymiz:

Muqaddas ekanligi. Ona xalqimizda muqaddas zot sanaladi. Onaninig muqaddas ekanligi milliy va diniy tushunchalar asosida uzoq yillar davomida shakllangan. Bu tushuncha *Ona Vatan, Ona yurt, Ona tuproq, ona tili* kabi birikmalarda reallashadi. Bu kabi kontekstlarda "onaday muqaddas Vatan", "onaday aziz tuproq", "onaday muqaddas tuproq" kabi ma'nolar metafora asosida reallashadi. Bunday murakkab tushunchalar metaforasi kognitiv metafora deb yuritiladi. Masalan, vatan tushunchasi murakkab tushuncha bo'lib, u konkret hudud tushunchasi bilan aynan ma'no anglatmaydi. Vatan ota-boblarimizdan meros bo'lib kelayotgan, kindik qonimiz to'kilgan, kelajagi uchun mas'ul bo'lganimiz muqaddas zamindir. Shu murakkab tushunchani nechog'li muqaddas, qadrli ekanligini anglash uchun biz uchun eng qadrdon, dunyoga keliboq ko'rganimiz, onaga qiyos qilinadi. Bu kognitiv jarayon natijasida vatanning muqaddasligi onaga mengzaladi va til egasi uchun tushunish, bilish oson kechadi.

Ota makon, ota yurtim kabi jumlalar bilan *ona vatan, ona diyor, ona tuproq* kabilarni taqqoslash to'g'ri emas. *Ona vatan, ona diyor, ona tuproq* birikmalari o'xshatishga asoslangan metafora asosida shakllangan: *ona tuproq - onamdek muqaddas tuproq*. Bu yerda metafora belgisi "muqaddas"dir. *Ota makon, ota yurt* esa metonimiya asosida shakllangan bo'lib, *otamdan qolgan yurt, otamdan qolgan makon* kabi jumlalarning iqtisod qonunini asosida qisqarishidan hosil bo'lgan. Chunki, o'zbek milliy madaniyatidan yer, mol-mulk otadan meros bo'lib o'tadi:

O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga.
(Muhammad Yusuf)

Ona leksemasi o'zining "muqaddas" semasi asosida *onaday aziz, onaday muqaddas* kabi o'xshatishlarni shakllantiradi. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'atida ona etalonni o'xshatish polisemantik xarakterda ekanligi ta'kidlanib, uning ikkita ma'nosi berilgan:

"*Onaday (kabi)* 1. Mehribon, aziz, yaqin, qadrdon. *Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g'amguzorim bor (A. Oripov. Vatan). Onamga o'xshaydi mening vatanim, Onamday mehribon, onamday xoksor (M. Yusuf. Mening Vatanim).*

2. E'zozla(n)moq, ardoqlamoq, bagriga olmoq. *Majnuntol azaldan ayol, onaday e'zozlangan (A. Rasulov. Tolerantlik va ruhiy poklanish). Ofarin, bag'ringga olding onadek, Talpinib mehringga biz parvonadek (J. Kamol. Quyosh chashmasi)"*[2].

Erkin mualliflik o'xshatishlari qatorida *onadek xokisor, onadek do'st* kabi o'xshatishlar uchraydi.*tili* birikmasi ham metonimiya asosida shakllangan bo'lib, "onaning tili" degan ma'noni anglatadi. Mazkur birikma "onaning tili" ma'nosi asosida shakllangan bo'lsa-da, unda ham "muqaddas" semasi mavjud:

Ona tilim, onajonim tili bu
Beshikdanoq singan jonu-quloqqa.
Elu yurtim, xonu monim tili bu,
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.

Zero, onaga tegishli barcha tushunchalarning muqaddasligi o'zbek milliy madaniyatiga xos an'anadir. Mana shunday tushunchalardan biri halollikdir. Tilimizda "ona sutiday halol" degan jumla mavjud bo'lib, unda o'zbek halqining halol va haromni tubdan farqlashi, nima mumkin va nima mumkin emas degan qat'iy chegaraning mavjudligi, mumkin emas narsalardan voz kechish kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlari mujassamdir. Mana shu mumkin bo'lgan halol narsalarning eng ulug'i ona sutidir. O'zbek tili egalari tomonidan ona sutining "halollik" timsoli deb belgilanishi va shunday nominatsiyaga ega bo'lishi "noyob topilma" deb baholanishi mumkin.

Obrazli assotsiatsiyalardan biri *ona qizim* jumlasida namoyon bo'ladi. Ota-onalar qizini o'z onasiga o'xshatishi asnosida mazkur metaforik qo'llash vujudga kelgan. Bu metaforada ota-onalar doim onalarini qumsashlari, o'zlari katta bo'lsa ham onaning sog'inchi unutilmas ekanligi, bu dunyoda onadek mehribon zot bo'lmasligi kabi aniq hayotiy haqiqatlar natijasida o'z farzand yoki nabiralarini onasiga o'xshatadi, shu qizaloqlar orqali sog'inchlarini qondiradi:

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 107

[2] Маҳмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 160.

Pokiza yurak bo‘lgin, eng shirin tilak bol‘gin,
Shu yurtga kerak bo‘lgin, qizim, onam qizim.

Quyosh kular yuzida, mehr to‘la ko‘zida,
Onasining o‘zi-da, qizim, ona qizim.
(Qo‘shiqdan)

Gapning onasi birikmasi izohli lug‘atda shunday talqin qilingan: “Gapning po‘skallasi, bo‘lgan-turgani, haqiqati”. – *Otangizga rahmat, Yusvali tog‘a! – dedi boshini qimirlatib Meli polvon. – Gapning naq onasini aytdingiz-qo‘ydingiz”*[1].

Bu o‘rinda *ona* leksemasi “gapning asosi” degan ma’noni anglatib, bosh ma’nodan “hayotning asosi” yashirin semasi natijasida metaforik ko‘chim natijasida hosil bo‘lgan.

Ona leksemasi *ona suti og‘izidan ketmagan, ona suti og‘ziga keldi, onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq, onasini boshiga yostiq bo‘lmoq* kabi frazemalar tarkibida ham keladi. *Ona suti og‘ziga keldi* frazemasi “juda ham qiynalganlik” holatini ifodalasa, *onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq* frazemasi esa do‘q, qo‘rqitish kabilarni ifodalaydi, *onasiga yostiq bo‘lmoq* frazemasi “turmushga chiqmasdan onasi bilan yashash” ma’nosini beradi. Shulardan *ona suti og‘zidan ketmagan* frazemasida “hali juda yosh, tajribasiz” frazeologik ma’noga asos bo‘lgan obraz saqlanganligi uchun uni frazeologik butunlik deb hisoblanadi: - *E, qayoqda! Kechagi go‘dak-ku bu, ona suti og‘zidan ketmagan. Amakisi qamalganda tug‘ilganlar hozir oltmishga qarab boryapti, bu o‘ttizning nari-berisida-ku. (Feruza Rajabova).*

Shu o‘rinda o*na suti og‘zidan ketmagan* va *tajribasiz* leksemalarining semantikasini qiyoslaab ko‘ramiz.

2-jadval. Frazeologik va leksik ma’noning qiyosiy tahlili

	Frazema: *ona suti og‘zidan ketmagan*	Leksema: *tajribasiz*
Denotatsiya	“Yoshligi sabab muayyan hayotiy tajribalarga ega emaslik”	“Yoshligi sabab muayyan hayotiy tajribalarga ega emaslik”
ko‘chma ma’no	Mavjud	mavjud emas
Konnotatsiya	Salbiylik	mavjud emas
Obrazlilik	Mavjud	mavjud emas
Eksprssivlik	Mavjud	mavjud emas
milliy-mentallik	mavjud (ona suti bilan bog‘liq)	mavjud emas

Demak, frazeologik ma’no leksik ma’noga nisbatan ancha murakkab va boy bo‘lib, unda ko‘chma ma’no, obraz, ekpressiv-emotsionallik bilan birga milliy-mental elementlar ham mavjud bo‘ladi. Masalan, *onasiga yostiq bo‘lmoq, onasining boshiga yostiq bo‘lmoq* frazemasida o‘zbek qizlari turmushga chiqquncha onasi bilan yashashi, oila qurmagan o‘zbek qizlari necha yoshda bo‘lishidan qat’i nazar ota-onadan alohida yashamasligi, onalar qizlarini aziz boshlari ostida asrab-avaylashlari kabi milliy madaniyat aks etmoqda. Bu frazema salbiy konnotatsiyaga ega ekan, demak, o‘zbeklarda qizlarning vaqtida turmushga chiqishi me’yor sanaladi: *Chiqaraman-da, nima, boshimga yostiq qilarmidim.*

Ona konseptini ifodalovchi birliklarni o‘zbek xalq maqollari ham tatshkil etadi. Aynan maqollarda o‘zbek xalqining ona haqidagi milliy tushunchasi, onaga bo‘lgan qadriyatli qarashlari, onalar haqidagi hayotiy falsafasi, o‘zbek onalariga xos tipik milliy xarakter aks etadi.

Onalar ifodalangan maqollarning tahlilidan quyidagi kognitiv belgilar aniqlandi:

Onaning mehribonligi va fidoiyligi: Bolaning qo‘li shilinsa – onaning ko‘ngli shilinadi, Onaning ko‘ngli bolada, bolaniki dalada, Otasini so‘rasang – Ahmadi forig‘, Onasini so‘rasang – tovoni yoriq; Otangning chorvog‘ida qolguncha, Onangning o‘ymog‘ida qol; Otangning mol-dunyosi bilan qolguncha,

Onangning pilta-savati bilan qol. Onali yetim gul yetim, otali yetim shum etim, Otaniki o‘q, onaniki do‘q; Farzand boqqan ota, Jonni qoqqan ona. Bu kabi maqollarda o‘zbek onalarining o‘ta mehribonligi, farzandi uchun jonini fido qilishi, bu dunyoda onadan ortiq mehribon bo‘lmasligi ifodalanadi. Masalan, *Onali yetim gul yetim, otali yetim shum yetim* maqolida onasiz ota bilan qolgandan otasiz ona bilan qolgan yaxshi ekanligi haqidagi hayotiy achchiq haqiqat ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, otalarning aksariyati ayoli olamdan o‘tgandan so‘ng uylanadi, ishlaydi, do‘stlari, qarindoshlari bilan munosabatlarda bardavom bo‘ladi, ya’ni u doim farzand tashvishida bo‘lmaydi. Lekin o‘zbek ayollarining aksriyati esa boshqa turmush qurmaydi, farzandi uchun umrini fido qiladi: *Onang o‘ldi – otang o‘ldi.*

Mana shunday fidoyilik, mehribonlik o‘zbek onasining tipik xususiyatlaridan biridir. Ba’zida onalarning me’yordan ortiq mehribonligi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi, farzand tarbiyasining buzilishiga sabab

[1] ЎТИЛ, 5 jildli, 3-жилд, 133-бет.

bo‘lishi ham mumkin: *Taltaytirsa onasi, o‘zidan ketar bolasi, Otaniki o‘q, onaniki do‘q.* Ikkinchi maqolda ona otaga ziddiyatga qo‘yilgan bo‘lib, otaning qarg‘ishi o‘q bo‘lib, Arshga yetib boradi, ya’ni otani xafa qilish umuman mumkin emasligini bildiriladi. Onaniki esa do‘q ekanligi, ya’ni ona bolasidan umuan hafa bo‘lmasligi haqidagi haqiqat oshkorlashadi. .

Maqollarda hayot falsafasi aks etadiki, onalarning mehribonligi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan jarayon bo‘lib, onaning mehribonligi farzandning o‘z farzandiga bo‘lgan munosabati zanjirsimon davom etadi. Masalan, ona qiziga mehribon, qiz o‘z qiziga mehribon. Onasidan katta mehr ko‘rgan qiz farzand o‘zbek mentaditetida o‘z onasiga qaytarishining imkoniya juda kam. Zero qizlar boshqa uyga kelin bo‘lib ketadi. Mana shunday hayot tarzi *“onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada”* kabi maqollarda reallashadi.

Farzandning shaxs sifatida shakllanishida onaning o‘rni katta ekanligi. Bola loy, ona kulol; Onasiga qarab qizini ol; Terakka qarab, tol o‘sar, Onaga qarab qiz o‘sar kabi maqollar onaning farzandinining kamolida o‘rni beqiyos ekanligini ifodalaydi. *Bola loy, ona kulol* maqoli xalq orasida juda faol ishlatiladi. Bu metaforaga asoslangan maqolda farzandning har tomonlama kamol topishidagi onaning ahamiyatini belgilab beradi. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, oilada otalar ishlagan, oilaning moddiy tomoni otalarning zimmasida bo‘lgan, farzand tarbiyasi esa onaga qolgan. Shu tarixiy jarayon haligicha davom etib kelmoqda. Ya’ni bugungi kunda onalarning jamiyatdagi mohiyati o‘zgargan bo‘lsa-da, oilada ularning farzand ta’lim-tarbiyasiga mas’ulligi haligacha an’ana bo‘lib qolgan. Oddiy loydan qanday buyum yaratilishi faqat kulolga bog‘liq, farnzandning qanday inson bo‘lishi ham uning onasiga bog‘liqligi shu maqol orqali namoyon bo‘ladi.

O‘gay ona ham ona ekanligi. O‘zbek xalqida o‘gay onaga nisbatan ham ijobiy ham salbiy munosabat mavjud. *Tuqqan emas, boqqan ona* maqoli o‘zbek o‘gay onalarining aksariyati haqida bo‘lib, o‘gay farzandni o‘zinikaday qilib tarbiyalashi nazarda tutilgan. *O‘gay onang bo‘lsa, dadang o‘zingniki emas* maqolida esa salbiy munosabat aks etgan. Demak, hayotda ikki toifadgi o‘gay onalar bo‘lishi haqida o‘zbek maqollari orqali bilish mumkin. Lekin o‘gay ona nominatsiyasida “ona” komponenti mavjud ekan, millat bu kabi ayollarning mavqeyini onaga tenglashtirgan.

Qaynonalar ham ona ekanligi. O‘zbek millatida o‘g‘il farzandlar ota-ona bilan yashaydi. Kelinlar qaynonani ona, qaynotani dada deb nomlaydilar, va ularni o‘z ota-onalaridek ehtirom qiladilar. Bunday oilaviy an’ana boshqa millatlarda kamdan kam kuzatiladigan odatdir. Bu kabi yashash tarzi xalq maqollarida o‘z aksini topgan: *Onali kelin – qarqara, Onasiz kelin - tasqara.*

Mahallaning ota-onaga tenglantirilishi. Ma’lumki, o‘zbek xarakterlaridan biri - yonma-yon ko‘pchilik bilan jamoa bo‘lib yashashdir. Xalqimiz ko‘p istilolarni ko‘rgani bois dushmanga qarshi ko‘pchiliklashib kurashish kerakligi kabi tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitlar mana shunday xarakterning shallanishiga sabab bo‘lgan. Yoki dehqonchilik ko‘pchilik bilan amalga oshiriladigan kasb-kor ekanligi ham xalqimizning jamoaviy uyushmalar shaklida yashashini taqoza qilgan. Mahalla ham mana shunday uyushmalarning tipik ko‘rinishi bo‘lib, mahalla ahli bir-birining frazandlari tarbiyasi uchun mas’ul sanalgan, nazorat qilgan, tanbeh, maslahat bergan. Mana shu milliy odatlar esa *Bir bolaga yetti mahalla ota-ona, Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona* kabi maqollarda aks etgan. Bir qizga yetti qo‘shni ota-ona maqolida qiz leksemasi farzand yoki boladan farqlanishni namoyon qilmoqdi. Bu esa o‘zbek millatida qizning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilganligi, bu masalada qo‘ni-qo‘shnilar ham bir-biriga yordamlashganligi, yuqorida ta’kidlaganimiz, farzand tarbiyasiga jamiyatning e’tibori, ko‘pchilik bo‘lib yashashning qon-qonimizga singib ketgan milliy xarakter ekanligidan dalolat beradi.

Onaning hurmat qilish farzligi haqida. O‘zbek milliy-metallitetiga ko‘ra o‘g‘il farzandlar oiladagi ayollarni: ona, opa, singil, xotin, qizlarni asrab-avaylashga, ularni hurmat qilishga mas’uldirlar. Xususan, onalarni hurmat qilish ham o‘g‘il, ham qiz farzandga uchun farz sanalsa, o‘g‘il farzandlar ota-onasi bilan birga yashashi, umrining oxirigacha ota-onaning xizmatida bo‘lishi me’yor sanaladi. Nafaqat o‘g‘il farzand, balki uning xotini – kelin ham onaning xizmatida bo‘lishi uzoq davrlardan beri ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan an’anadir. G‘arb madaniyati uchun bu me’yorlar noto‘g‘ri ko‘rinish mumkin. Lekin dono xalqimiz bugunni emas, ertasini o‘ylab shakllantirgan bu an’anada har qanday insonning qarishi muqarrarligi, keksalikda har kimga ham tirgak kerakligi haqidagi hayot haqiqati asos bo‘lgan.

Xalqimizdagi ona mo‘tabar insonligi, uni azizlash, e’zozlash hurmat qilish farz ekan ekanligiga asoslangan milliy xarakter darajasiga yetgan axloqiy me’yorning shakllanishiga islom dining ta’siri shubhasizdir. Qur’oni karimning Ahqof surasidashunday oyat kelgan: “Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilisjga buyurdik. Onasi uni (qornida) qiynalib ko ‘tarib yurgan va uni qiynalib tuqqandir” (Ahqof surasi 15-oyqt).

Luqmon surasining 14-oyati esa mana shunday mazmunga ega: “Biz insonga ota-onasini (rozi qilishga) buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan qornida ko‘tarib yurdi” (Luqmon surasi 14-oyat).

Imom Buxoriyning “Sahihul Buxoriy” to‘plamida kelgan Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat

qilingan hadisi sharifda bunday deyilgan: “Bir kishi Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning oldiga kelib: “Ey Rasulullоh! Yaxshilik qilishim uchun eng haqli bo‘lgan inson kim?” deb so‘radi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Onang”,* deb javob berdilar. U odam: “Keyin kim?” deb so‘radi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Onang”,* deb javob berdilar. U odam: “Keyin kim?” deb so‘radi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Onang”* deb javob berdilar. U odam (to‘rtinchi marta): “Keyin kim?” deb so‘radi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Otang”,* deb javob berdilar”.

Yoki yana bir hadisda shunday deyiladi: Bir kuni Muoviya ibn Johima raziyollohu anhu payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib, shunday dedilar: “ey Allohning rasuli! Men g ‘azotga bormoqchi edim, maslahatingizni olish uchun keldim. Shunda rasulullоh: “Onangiz bormi?”, – dedilar. U kishi: “Ha”, – dedi. Payg‘ambarimiz: “Onangizning xizmatlarini g‘animat biling, chunki jannnat uning oyog‘i ostidadir!” – dedilar (Imom Nasaiy va Hokim rivoyatlari).

Islom dinida onaning yuqori martabasi xalqimizning onaga bo‘lgan munosablaridagi axloqiy, madaniy me’yorlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bunday me’yorlar tilda o‘z ifodasiga ega. Tilimizda *jannatim onam, duogo‘yim onam* birikmalari ham barqaror birikmaga aylanib qolmoqda. O‘zbek maqollaridan: *Ota-onasini tanimagan, Tangrisini tanimas; Onamga bermang baho, chunki onam bebaho; Onasi qimizak yesa, qizni tishi qamashar; Ona olam faxridir; Onangga boshingni xam qil, Otangga gapingni kam qil; Yomon farzand ota-onani yerga qaratar, Yaxshi farzand ota-onani elga oralatar; Ota-ona duosi, O‘tga, suvga botirmas; Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar, Onasini og‘ritgan Parcha nonga zor bo‘lar* kabilarda onaning ulug‘ zot ekanligi, uni qadrlash kerak ekanligi, aksincha holatda salbiy oqibatlari borligi aks etgan.

Demak, o‘zbek tilida ona konsepti turli til birliklari: leksema, frazema, barkaror birikmalar, metafora, o‘xshatish va maqollar orqali shakllanadi. Mazkur konseptda o‘zbek xalqining onaga bo‘lgan munosabati, bu munosabatlardagi madaniy-axloqiy me’yorlar, mazkur me’yorlarning milliy xarakter bilan shartlangan o‘rinlari aks etgan. Mana shunday o‘ziga xosliklarga onalarning fidoyiligi, mehribonligi, farzandga sodiq do‘stligi, muqaddas zot ekanligi; o‘gay ona, qaynona va mahalladagi qo‘shnilar ham onaga tenglashtirilganligini kiritish mumkin.

Rezyume. Mazkur maqola o‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi borasida tahlillar olib borilgan. *Ona* leksemasining lug‘atda berilgan ma’nolari taraqqiyoti, “ona” konseptini ifodalovchi birliklarni o‘zbek xalq maqollari tarkibida qo‘llanilishi, hadislarda “ona” konseptining ifodalanishi kabi jihatlari o‘rganilib, munosabat bildirilgan. *Ona* leksemasining semantik strukturasi, frazeologik va leksik ma’noning qiyosiy tahlili jadval asosida keltirilgan.

Resume. This article analyzes the expression of the character of “family care” on the example of the concept of “mother” in the uzbek language. Aspects such as the development of the lexeme “mother” given in the dictionary, the use of units representing the concept “mother” in uzbek folk proverbs and the expression of the concept “mother” in hadits were studied and expressed. Semantic structure of mother lexeme, comparative analysis of phraseological and lexical meaning is presented on the basis of the table.